

**OZOD SHARAFIDDINOV IJODINING XARAKTERI,
USLUBI VA HAYOTIDAGI MUHIM O'ZGARISH**

Jahonova Malika Ibodullo qizi

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Jurnalistika yo'nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbek adibi, olimi, tanqidchi hamda tarjimoni Ozod Sharafiddinovning ijodi va uning ijodiy uslublari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Ijod, e'tiqod, uslub, asar.

*“Ilmdan yuz o'girish -insoniylikdan yuz o'girish demak.
Chunki ilm insoniylik toji hisoblanadi”*

Ilm bu keng tushuncha, unga ega bo'lish, uni anglab yetish ajib mahorat. O'z zamonasining yutuk adibi bo'lgan, mustahkam bilimga ega inson Ozod Sharafiddinov adabiyotshunos olim, tanqidchi va tarjimon bo'lgan. U 1929-yilning 1-martida Farg'ona viloyati Qo'qon shahriga yaqin bo'lgan Oxunqaynar qishlog'ida tavallud topgan. Avvaliga Toshkentdagi 14- o'rta maktabni, undan so'ng hozirgi O'zbekiston Milliy universitetining filologiya fakultetini tamomlagan. Moskvada esa, aspiranturani tugatgan va ilmiy darajani olgan. U adabiyotda salmoqli va takrorlanmas ijod qila olgan. O'zbek she'riyati va unga oid ham tanqidiy ham adabiy maqolalar yozgan.

Vatan-ona so'zi naqadar laziz,
Sensan har narsadan mo'tabar aziz,
Hurmatingni saqlar har bir o'g'il-qiz Muqaddas,
mo'tabar, ulug' Vatanim,
O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan.

Ushbu misralarnining zamirida chuqur ma'no, o'ziga xoslik va uslub mujassam. Ozod Sharafiddinovning ijodida so'zlarning uyg'unligi, ulardan to'g'ri foydalanish, oddiy so'zlarda chuqur ma'no yaratish singari mahoratlarni guvohi bo'lish shubhasiz. Adabiyotshunos, kuchli so'z ustasi bo'lgan va u deyarli hamma yo'nalishlarda ijod qilgan. Ozod Sharafiddinov butun umri davomida vatanga sadoqat tuyg'usi bilan yashagan. Ijodkor o'zining to'g'ri so'zi, irodasi va vatanga bo'lgan cheksiz muhabbati orqali yurtimiz ravnaqi yo'lida ko'plab samarali ishlarni amalga oshirgan. Ayniqsa, o'zbek adabiyotida yorqin iz qoldirgan. Adabiyotimizda juda ko'plab yozuvchilarimiz o'z ijod xazinalarini turli xil ijod namunalari bilan, ayniqsa yurt haqidagi asarlar bilan boyitishgan. Ozod Sharafiddinov ham mazmundor, ijod namunalari yaratgan.

Ya'ni olim o'zbek adabiyotida alohida o'z mavqeiga va o'rniga ega bo'la olgan shaxsdir. Adabiyotshunos vatan, yurt ravnaqi, yoshlar kelajagi uchun bir qancha qiyinchilik va mashaqqatli vaziyatlarga qaramay doimo oldinga intila olgan allomalardir. Shu sababli u o'z tug'yonlarini, kechinmalarini o'z asarlari orqali bayon qilgan. Shuning uchun bejizga: “Kitoblarimni asranglar, mening eng katta boyligim mana shu kitoblar edi ” demagan. Ozod Sharafiddinovning asarlari chuqur ma'no, mohiyat, teran fikrlarni qamrab olgan. Adabiyotshunosning kitoblarga mehr-muhabbati juda kuchli bo'lgan. Ozod Sharafiddinov o'zi kitob mutolaa qilish bilan birga, kitobxonlarni ham juda yahshi ko'rgan. Ularga katta ehtirom va hurmat ko'rsatgan. Adib ko'p mutoalaa bilan shug'ullanganli tufayli o'tkir qalam sohibi bo'lgan va undagi katta iste'dodni ko'rgan sevimli adibimiz Abdulla Qahhor uni o'z bag'riga olib mehr bergan. Ozod Sharafiddinov mohir yozuvchi, tanqidchi, zahmatkash olim va mehribon ota sifatida bu yorug' olamda katta iz qoldirdi. O'zidan ulkan ijodiy va adabiy meros qoldirdi. Uning adabiy me'rosi butun o'zbek adabiyotining o'lmas boyligi bo'lib qoldi. Uning asarlarida nafaqat o'tmishning balki, hozir va kelajakning hayot tarzi aks etgan. Ozod Sharafiddinovning ijod namunalari o'zbek adabiyotida o'zining o'rniga, uslubiga va xarakteriga ega. Uning “Zamon”, “Qalb”, “Poeziya”, “Yalovbardorlar”, “Iste'dod jilolari” , “Birinchi mo'jiza”, “Adabiyot-hayot darsligi”, “Cho'lponni anglash”, “Ijodni anglash baxti”, “Dovondagi o'ylar” kabi adabiy-tanqidiy asarlari chop etildi. Ozod Sharafiddinovning 28 ta asari chop etilgan va matbuotdagi maqolalari 385 tani tshkil etadi , tarjima asarlari esa 150 ga yaqin. Bundan tashqari , yozuvchi bir nechalab shogirdlar qoldirdi. Ozod Sharafiddinov adabiyotimiz va mulohazamiz taraqqiyotida o'chmas iz qoldirgan bo'lib buyuk va mangu siymo sifatida tan olingan. Ayniqsa, uning tanqidiy va tahliliy fikrlashi ko'pchilikning e'tiboriga sazovor bo'lgan. Shuning uchun adabiyotshunos tanqidchilik sohasida ham ko'plar ijod qilgan. Tanqid – biror sohani to'la to'kis ko'rib chiqish , uning ustun tomonlari va kamchiliklarini yoritish va qaysidir ma'noda atrofdagilarning e'tiborini jalb etishdir. Ozod Sharafiddinov ham ko'plab soha yoki mavzularda o'z tanqid usulidan foydalanib, aynan o'sha sohani rivojlanishga , kamchiliklarni yo'qotishga va yanada mustahkam bo'lishiga ulkan hissa qo'shgan. Ozod Sharafiddinov o'z kasbdoshlari va yaqinlarini tahlilda bir yoqlamalilikdan , bir xillikdan yiroqlashtirishga undagan. Ozod Sharafiddinov bejizga “ haqiqiy iste'dod egasi hech qachon jo'ngina formulaga tushadigan yuzaki odam bo'lmaydi” demagan. Ozod Sharafiddinov tanqidchilikda aql o'rgatish yoki xato topishga emas balki, o'sha asarni aynan nozik nuqtalarini ochib berishga va yanada badiiylilikni kengroq targ'ib etishga harakat qilgan. Ozod Sharafiddinov ijodi va hayotining eng e'tirofli nuqtasi shundaki, yozuvchi o'z e'tiqodini o'zgartirganligidir. Rossiya Kommunistlar partiyasi rahbari Gennadiy Zyuganovning so'zlari Ozod Sharafiddinov e'tiqodini o'zgarishiga sabab bo'gan. Uning gaplaridan adib o'z yo'lini xato ekanligini tushunib boshqa yo'l

yaxshiroq ekanligini o'zi anglab yetadi. Ya'ni Ozod Sharafiddinov nafaqat o'zgalarni balki, asosan o'zini, o'zligini, o'z ijod usulini ham tanqid qila olgan shaxs. Chunki inson o'zini o'zi idrok etishi, tanqid qilishi bu-ulkan jasorat. Bu esa yozuvchining shunchalik kuchli e'tirof etilishiga yana bir dalil. Yozuvchining “Cho'lponni anglash” risolasi ham uning ijodini yanada boyitgan. Ozod Sharafiddinov Cho'lpon hayotini va ijodini o'tkir sinchkovlik bilan kuchli tahlil qilib shunday xulosaga keladi: “Cho'lponni anglash -so'z san'atining botiniy qonuniyatlarini teran anglash, ularning shoir ijodida qanday zohir topishini anglashdir. Cho'lponni anglash -uning buyuk umumbashariy g'oyalarini, uning yuksak insoniy tuyg'ularini yurakka singdirib olishdir. Cho'lponni anglash – Vatanni. ko'hna Turkistonimizni Cho'lpon ko'zi bilan ko'rib, Cho'lpon yuragi bilan seva bilmoqdir. Bir so'z bilan aytganda, Cho'lpon har bir adabiyot muxlisining yurak mulkiga aylanishi shart. Buning uchun esa, Cho'lpon merosini yangi tafakkur asosida bag'rikenglik bilan tadqiq etmoq lozim”. Ozod Sharafiddinov ijodi, asarlari o'ziga xosligi, usuli va xarakteri bilan ajralib turadi. Yozuvchi o'z sohasida ko'rinarli mehnat qilgan. O'z ijod namunalari bilan doimo adabiyotimiz mulkini boyitib kelgan va fidoiyligi bilan bir talay ulkan cho'qqilarni zabt eta olgan. Olimning ilhom va mulohaza bilan yozgan asarlari adabiyotimizning takrorlanmas merosi bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Toxir Malik. Umidimiz yulduzlariga : “Odamiylik mulki”ga doir suhbatlar-Toshkent “ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi “ Davlat ilmiy nashiryoti, 2018-688b
2. B. Qosimov, V. Qodirov, Q. Yo'ldashev, J. Yo'ldoshbekov, Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinf uchun darslik-majmua – Toshkent : “Sharq 2013-368 b
3. “Kh-davron.uz” sayti <https://kh-davron.uz>. emistry-biology 1987. -640 p.